

# “Polimerlar haqidagi fanning istiqbollari” O’zbekiston-Rossiya mikrosimpoziumi o’tkazildi

2021-yilning 23-24-sentyabr kunlari O’zR FA Polimerlar kamyosi va fizikasi institutida “Nanopolimerlar: Sintezi, strukturasi va qo’llanilishi” mavzusida “Polimerlar haqidagi fanning istiqbollari” O’zbekiston-Rossiya Mikrosimpoziumi o’tkazildi. Mazkur ilmiy forumda polimerlar haqidagi fan sohasida faol tadqiqotlar olib borayotgan O’zbekiston olimlari bilan birgalikda Rossiya Federatsiyasining yetakchi olimlari ham ishtirok etdilar.



Bunday Mikrosimpozumlarni o’tkazishdan asosiy maqsad - ilm-fanning zamonaviy jahon andozalari va tendensiyalariga mos keladigan sifat jihatidan yangi rivojlanish darajasiga o’tishiga ko’maklashish, mahalliy fundamental va amaliy kimyo fanining izchil rivojlanishini ta’minlash, o’zining innovatsion ishlanmalari orqali mamlakat iktisodiyotini xom-ashyo yo’nalishidan yuqori qo’shimcha qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishgacha joriy etishda o’z hissasini qo’shish, shuningdek, ta’lim sohasida munosib o’ringa ega bo’lishdan iborat.

Mazkur Simpoziumning o’tkazilishi respublikalarimizda mazkur istiqbolli yo’nalish – polimerlar haqidagi fanni rivojlantirish yo’lida Rossiya Federatsiyasi va O’zbekiston Respublikasi olimlari hamkorligini yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi, degan umiddamiz.